

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF EDUCATION AND UPBRINGING

Denov Institute of entrepreneurship and pedagogy

3rd year students of preschool education

N.Ortigova, N.Eshtemirova, M.Pardayeva

Key words: educational activities, motivation, learning motives, pedagogical technology, intelligence qualities, skills, qualifications, habits.

O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlarishakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjuddigini, bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi. D.B.Elkonin esa o'quv faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o'zini namoyon bo'lish shaqliga ko'ra ijtimoiylikini ta'kidlaydi. O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o'quvchida o'zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo'lishidarkor. Bu motivlar bevosita o'quvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak O'quv faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir. Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni xulq-atvorning shaqllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o'z faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o'zlashtirilishiga maqsadga muvofik keladigan usullar va jarayonlarni to'g'ri tanlash va foydalanishga bog'liq. Ta'lim motivatsiyasi o'quvchilarning o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishiga shaxsiy qiziqishini anglatadi. O'qituvchining faqat moddiy qiziqishlarini qondirish, yoki ishsiz qolmaslik, qisqarishga tushmaslik uchungina ta'lim berishi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, bunda pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim mahsuldorligini oshirishdagi dastlabki vazifa uni chuqur va ko'p motivatsiyali jarayonga aylantirishdir. O'qituvchi o'quvchilarni o'qitish jarayonida o'z hayotining asosiy mazmuni va maqsadini ko'ra boshlaganida ta'lim samarali bo'adi. Ta'limning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'adi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgan qurilmalardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib kolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi. O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatlilikini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli,

<https://conferencea.org>

February 28th 2023

optimistik kayfiyat o`quv faoliyatini juda samarali qiladi. O`quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o`zlashtirib oladilar. Ta`lim jarayonida o`quvchilarning bilishga qiziqishlari g`oyat katta rol o`ynaydi. Ma`lumki, qiziqish o`quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo`nalishidir. Ma`lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o`quvchilarning ta`lim

jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o`qituvchi o`z o`quvchilarida o`z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o`quvchilarda ta`limga faol munosabat namoyon bo`ladi. Psixologiyada qiziqish – bu shaxsning o`zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo`lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Qiziqishlar o`quvchilar hayotida katta rol o`ynaydi. Ular o`quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar-motivlardir. Qiziqishlar maktab o`quvchisiga fan asoslarini durustroq o`zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o`shishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O`qituvchilarning vazifasi o`quvchini dastlab qiziqitirib qolgan ishning o`zi bilan shug`ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta`sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug`ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir. O`quvchilarning muayyan maqsadni ko`zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni enga olishida, ishdan chalg`itadigan narsalar bilan shug`ullanishdan o`zini tiya olishida, unda o`qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo`ladigan iroda, ta`lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy psixologiya kursidan ma`lumki, iroda bu shaxsning o`z oldiga qo`ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo`lida ma`lum bir qarorga kelish tezligi va uni o`z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta`lim jarayonida o`quv materialiga bo`lgan diqqatning barqaror bo`lishida irodaviy zo`r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta`limda iroda o`quvchida maktab va uyda o`tkaziladigan mashg`ulotlarga tayyor turishda namoyon bo`ladi. O`quv materialini o`rganish, eslab qolish va

o`quvchining irodaviy zo`r berishiga bog`liq. Iroda o`quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani echishga, qo`yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo`ladi. Ular o`quvchilarda ko`nikma, va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi. Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o`quvchilar tomonidan berilgan materialning o`zlashtirilishi ko`p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog`liqdir. Irodaviy aktivlik ta`limning zarur shartidir. O`quv muassasasidagi ta`lim jarayonining o`zi o`quvchilardan irodani o`stirish omillaridan biridir. Bunda o`quvchilarning kundalik rejimi, o`qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to`g`ri almashtirib turish katta rol o`ynaydi. Ta`lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e`tibor berish lozim. Zero, bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo`lib, unda jonli mushohadadan mavhum tafakkurga, mavhum tafakkurdan esa amaliyotga o`tiladi, ana shundan so`ng ob`ektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko`rib chiqishimiz lozim bo`lgan narsa o`quv materialini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma`lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta`sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo`lishi bo`lib, idrok etish jarayoni ta`limda turli formalarda o`qituvchining og`zaki hikoya qilishida, suhbat o`tkazishda, ma`ruza o`qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va ko`rgazmali qurollar ko`rsatish, ekskursiyalar o`tkazish, o`quvchining o`ziga darsliklar hamda boshqa qo`llanmalarni o`qitish tarzida o`tishi mumkin. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. David G.Myers. "Psychology" Michigan USA: Worth Publishers.: 2011.
2. A.X.Yugay, N.A.Mirashirova «Obshaya psixologiya» T. TGPU, 2014.
3. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O`z.FMJ., 2008.

<https://conferencea.org>

February 28th 2023

4. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fanva texnologiyalar” markazining bosmaxonasi: 2009.
5. <http://books.google.co.uz/books/S.K.Mangal>
6. www.tdpu.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.ziyonet.uz
9. www.lex.uz;
10. www.bilim.uz;